

ASFANDIYORXON: ISLOHOT, INQIROZ, FITNA

*O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li, Namangan davlat universiteti
Tarix yo'nalishi talabasi*

**ASFANDIYORKHAN: REFORM, CRISIS,
CONSPIRACY**

*Uktamov Tohirjon Gayrat oğlu, student of the History Department of
Namangan State University*

**АСФАНДИЯРХАН: РЕФОРМЫ, КРИЗИС,
ЗАГОВОР**

*Уктамов Тохиржон Гайрат оглы, студент исторического
направления Наманганского государственного университета*

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'nggi Xiva xonlaridan biri Asfandiyorxonning hokimyatga kelish jarayoni, ichki va tashqi siyosati, boshqaruv sohasidagi islohotlari va fojeali taqdiri haqida ma'lumot beriladi. Asfandiyorxon hukmronlik davrida xonlik boshqaruv tizimida asosiy o'rinda turgan bosh vazir Islomxo'ja faoliyati ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Qo'ng'irotlar sulolasi, Muhammad Rahimxon II, Asfandiyorxon, Islomxo'ja, "Farrux", "Yosh xivaliklar", Junaidxon, fitna.

Abstract: This article provides information about the process of Asfandiyor Khan's rise to power, his domestic and foreign policies, his reforms in the field of governance, and his tragic fate. The activities of Prime Minister Islam Khoja, who played a key role in the khanate's governance system during Asfandiyor Khan's reign, are also covered.

Keywords: Khiva Khanate, Kungirat Dynasty, Muhammad Rahim Khan II, Asfandiyor Khan, Islam Khoja, "Farrukh", "Young Khiva People", Junaid Khan, conspiracy.

Аннотация: В статье представлена информация о процессе прихода к власти Асфандияр-хана, его внутренней и внешней политике, реформах в сфере государственного управления и его трагической судьбе. Также освещается деятельность премьер-министра Ислама Ходжи, сыгравшего ключевую роль в системе управления ханством в период правления Асфандияр-хана.

Ключевые слова: Хивинское ханство, династия Кунгират, Мухаммад Рахим-хан II, Асфандияр-хан, Ислам Ходжа, "Фаррух", "Молодые хивинцы", Джунаид-хан, заговор.

KIRISH. Qo'ng'irotlar sulolasidan bo'lgan xonlar Xiva xonligini 1770 – 1920-yillar davomida boshqarganlar. Bu sulolaning bir qator hukmdorlari xonlik qudratini oshirish, sarhadlarini kengaytirish borasida islohotlar o'tkazganlar, ilm-fanga homiylik qilganlar. Mana shunday Xiva xonlaridan biri Muhammad Rahimxon II (1864 – 1910) hisoblanadi. Muhammad Rahimxon II

xonlikda eng ko'p hukmronlik qilgan hukmdor ham hisoblanadi. Feruz taxallusi bilan tanilgan Muhammad Rahimxon II ilm-fanga homiylik qilgan, xonlikda ko'plab qurilish ishlarini amalga oshirgan, bog'lar, saroylar, madrasalar bunyod ettirgan. Ammo, uning hukmronligi davrida Xiva xonligi Rossiyaga qaram bo'lib qolgan (1873). Shunday og'ir siyosiy jarayonda xonlikni



<https://orcid.org/0009-0008-1644-4796>

-0008-1644-4796

e-mail:

oktamovtohir2@gmail.com



boshqargan Muhammad Rahimxon II 1910-yil 16-avgust kuni shol kasalligidan (ba'zi manbalarda falaj kasalligidan) vafot etgan.

1910-yil 17-avgust kuni Muhammad Rahimxon IIning to'rtinchi o'g'li Asfandiyor to'ra taxtga ko'tariladi. Bu haqida tarixchi Bayoniy bunday yozadi: "Hijratning ming-u uch yuz yigirma sakkizlanchisi va sunbulaning yigirma besh-u sha'boni muazzamning yigirma to'rtlanchisi va dushanba kunidakim, oftobning g'urubig'a ikki yarim soat qolib erdi, hazrat shahzodayi valiahd Sayyid Asfandiyor to'ra doma umrahu davlatuhu muborak boshlarig'a jig'ali telfakni kiyib xon bo'lub ota taxtida o'lturdilar" [3.–B. 260].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Muhammad Rahimxon II Asfandiyor to'rani valiahd etib tayinlashiga sabab, o'g'lining o'tkir fahmi va she'riyatga kuchli ixlosi borligida edi. "Farrux" taxallusi bilan ijod qilgan Asfandiyorga otasi Muhammad Raximxon boshqa o'g'illariga nisbatan ko'proq umid bilan qarardi. Asfandiyorxon Xiva qozisi Muhammad Solih ohunddan din ilmini o'rganib, Ibrohimxo'ja qo'lida tarbiyalanadi [8.–B.88]. Taxtga kelgan Asfandiyorxon akalari Asqar to'ra, Mehdiyor to'ra, Sayyid Abdulla to'ra, ukalari Ubaydulla to'ra va Muhammad Yusuf to'ralarga ham ko'plab imtiyozlar bergan. Mamlakatni boshqarishga kirishganligi munosabati bilan Xivaning muqaddas joyi sanalgan Pahlavon Mahmud maqbarasini ziyorat qiladilar. Oq kiygizga o'tqazish va Pahlavon Mahmud maqbarasini ziyorat qilish Xivaning qadimiy udumlaridan hisoblanadi.

Asfandiyorxon xonlik davri yangiliklardan boshlanadi. Yosh hukmdor otasi boshlagan xayrli ishlarni davom ettiradi. Ammo, keyinchalik siyosiy jarayonlarga shong'ib ketadi.

Asfandiyorxon farmoni bilan xonlik aholisi qadimdan kelayotgan *begar* (yiliga har kishi davlat uchun 12 kun ishlab berishi), 2,5 tanga soliq to'lash, yiliga 2 tanga miqdorida suv solig'i to'lashdan ozod qilinadi [7.–B.252]. Soliq turlari ham kamaytiriladi. Ichan qal'aning shimoliy tomonlarini obod qilib, Toza Xivaq nomi bilan atashga farmon beradi.

Asfandiyorxon taxtga kelganidan keyin Rossiya imperiyasi hukumatining talabi bilan soliq yig'uvchilarga oylik maoshi beriladigan bo'ldi. Shunday qilib, Asfandiyorxon buyrug'i bilan

barcha amaldorlar, shuningdek, qoraqalpoqlar xon xazinasidan 1910-yildan boshlab oylik maoshi oladigan bo'ldilar [5.–B.236]. Bu islohot birozgina bo'lsa-da amaldorlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilanishiga olib keldi. Bunday tadbirlarni amalga oshirishda bosh vazir Islomxo'janing katta sa'y-harakatlari bor edi.

MUHOKAMA. XX asr boshlarida xonlikda amalga oshirilgan qurilish ishlariga bosh vazir Sayyid Islomxo'ja boshchilik qiladi. Katta bilim va davlat boshqaruvida qobiliyatga ega bo'lgan Islomxo'ja xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlash va rivojlantirish, ilgo'r fan-texnika yutuqlarini xonlikka jalb qilish tarafdorlaridan biri bo'lgan. Shu sababdan quruvchi, muhandislar, ustalar Xivaga olib kelingan. 1912-yilda Xivada pochta-telegraf, kasalxona va xonning yozgi qabulxonasi binolari qurilishi boshlangan. Nurullaboy bog'ida xorijdan keladigan savdogarlar, ishbilarmonlar, rus ofitserlari hamda nufuzli mehmonlarni qabul qilish uchun saroy qurilishi boshlangan. Bu saroy yetti xonadan iborat bo'lib, uning qurilishida nemis va rus quruvchilari ishlagan. Yevropa uslubida qurilgan saroyni yoritish uchun elektr stansiyasi qurish zarurati ham paydo bo'ladi. Bu fikr bosh vazir Islomxo'jadan chiqqan edi [1.–B.98]. Elektrostansiya uchun kerakli asbob-uskunalarini olib kelish uchun Moskva hamda Peterburgga maxsus odamlar yuborilgan. Islomxo'janing harakatlari sababli Xivada 1912-yil dekabrda soatiga 40 kilovatt elektr chiqarish quvvatiga ega bo'lgan birinchi elektrostansiya ishlay boshlagan.

1911-yilda Asfandiyorxon Peterburgga safarga chiqqan. Xonga hamroh bo'lganlar orasida vaziri Akbar Sayyid Islomxo'ja ham bor edi. 1911 va 1913-yilgi safarda Rossiya imperatori Asfandiyorni taxtga o'tirish munosabati bilan tabriklagan, unga generallik unvonini bergan. Bosh vazir Islomxo'jani esa "Katta Yulduz" ordeni bilan taqdirlagan [6.–B.30]. Peterburg safarida Islomxo'ja bilan Muhammad Rasul Mirzo, Mustafu karvonboshi, Hojiboy, Polvonniyoz hoji, Husaynbek, Xudoybergan devon va yana bir qancha amaldorlar qatnashgan edi. 1913-yilgi safarda Islomxo'ja faqat Peterburgdagi rus ma'murlari bilan emas, balki, Turkiya hamda Eron elchilari bilan ham uchrashib, Xivaning Sharq davlatlari bilan iqtisodiy va diplomatik aloqalarining yo'lga qo'yilishiga harakat qilgan.

Islomxo‘ja har gal Rossiyaga qilgan safarlarida rus ma‘murlari, arxitektor, muhandis, rus va musulmon muallimlari bilan uchrashib, ular bilan muloqotda bo‘lgan.

XX asr boshlarida Xiva xonligida ham islohotchilik g‘oyalari tez yoyila boshlagan. Xonlikning badavlat kishilari, savdogarlar, yoshlar Rossiya, Turkiya va Yevropaning bir qancha davlatlarida bo‘lib, fan va madaniyat yutuqlari va davlat boshqaruvi uslublari bilan tanishdilar. Shu sababli davlat boshqaruvini konstitutsion monarxiya o‘rnatilishini va davlatni parlamentar uslubda boshqarish g‘oyalarini ilgari suradilar. Ushbu harakat tarixda jadidchilik nomi bilan iz qoldirdi. Xivada rivojlana boshlagan jadidchilik harakatining o‘ng oqimi mahalliy boylardan iborat bo‘lgan. Ularning yetakchisi bosh vazir Islomxo‘ja, kuyovi va Xiva xoni bo‘lgan Asfandiyorxon hokimiyatini saqlab qolgan holda, mamlakatda islohotlar o‘tkazish yo‘li orqali kapitalistik rivojlantirishga intilgan. Jadidlarning so‘l oqimiga qozikalon Boboxxun Salimov boshchilik qilgan. Bu oqimning tarafdorlari orasida devonbegi Husayinbek Matmurodov, Xudoybergan Devonov, Avaz O‘tar o‘g‘li, Polyozhoji Yusupov, Otajon Safojev, Mulla Bekchon Rahmonov, Otajon Abdalov, Jumaniyoz Sultonmurodov kabi taraqqiyparvar insonlar bor edi [1.–B.105]. Jadidlarning ko‘pchiligi keng dunyoqarashga ega bo‘lgan va ko‘pgina tillarni biladigan ziyoli insonlar bo‘lgan. Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri bo‘lgan Polyozhoji Yusupov arab, fors, rus tillarini, Boboxxun Salimov esa o‘zbek, rus, arab, fors tillarini bilar edi.

Jahondagi siyosiy hamda iqtisodiy jarayonlardan habardor bo‘lgan Islomxo‘ja xonlikda islohotlar o‘tkazish rejasini taklif qilgan. U ko‘zlagan tadbirlar orasida quyidagi muammolarni yechishni vazifa qilib belgiladi:

- xonlikdagi mansabdorlarga lavozimiga qarab oylik maosh berish;
- dehqonlardan soliq olishni tartibga solish;
- zakot, boj, xiroj kabi soliqlarni tartibga solish;
- savdo-sotiq soliqlarini tartibga keltirish;
- sug‘orish ishlarini tartibga solish;
- yo‘l va qurilish ishlari hamda pochta-telegraf xizmatini tashkil qilish;

– kasalxonalar qurish, qishloqlarda feldsherlik xizmatini ochish, tibbiy xizmatchilarni taklif qilish;

– barcha vaqf yerlarini tartibga keltirish hamda daromadlarini maorif ishlariga sarflash;

– barcha maktablar o‘qitish tizimini yangilash va maktablarda rus tili, tarix, geografiya fanlarini majburiy qilib kiritish;

– xon xazinasi hisobini yuritish, kirim-chiqim daftarlarini olib borish.

1912-yil Islomxo‘janing 30 ming so‘mlik xarajatlari evaziga Xivada ikki qavatli Yevropa uslubidagi bino qurilgan va unga rus-tuzem maktabi joylashtirilgan [1.–B. 106].

NATIJALAR. Bosh vazir Islomxo‘ja Asfandiyorxonga davlat xazinasidagi pullarni behuda sarflamaslikni, maishat hamda ichkilikbozlikka berilmaslikni maslahat qilib turgan. Bosh vazirning bu maslahatlari xonga yoqmas edi. Shu sababdan g‘alamislar gapiga kirgan xon Islomxo‘jani o‘ldirish haqidagi fikrlarga qo‘shildi. 1913-yilning avgust oylarida Asfandiyorxon saroyida maxfiy yig‘ilish bo‘lan va unga ishonchli odamlardan Abdukarim yasovulboshi, Matvafo Baqqolov karvonboshi, Ashir mahram va Ro‘zmat mahramlar taklif etilgan[6.–B. 64]. Nurullaboy saroyiga yig‘ilgan bu insonlarning qanday masalada yig‘ilganligi boshqalardan sir tutilgan. Aslida unda faqat bitta masala, ya‘ni, Islomxo‘janing taqdiri masalasi ko‘rib, sirli qotillik masalasi ishlab chiqilgan edi. Islomxo‘jani yo‘q qilish uchun Shixnazarboyning xizmatida bo‘lgan Quronboy bo‘zchi degan shaxsni yollashgan. U katta hadyalar evaziga shu ishga rozilik bildiradi. Islomxo‘ja 1913-yil 9-avgust kuni odatdagiday xonga hisobotni berib, uyiga qaytmoqchi bo‘ladi, uning shaxsiy soqchisi hisoblangan Bobojon qatag‘onni Abdukarim yasovulboshi iftorlikk so‘rab olib qoladi. Shu tariqa Islomxo‘janing foytunchisi almashtirib qo‘yiladi. Islomxo‘jada bu ishlar shubha uyg‘otmaydi. U o‘zining yangi izvoshchisi bilan birga Tozabog‘ tomonga yo‘l oladi. Quronboy bo‘zchi boshchiligidagi qotillar esa Tozabog‘ yo‘lidagi “O‘g‘lon Aziz bobo” qabristonida yashirinadilar. Shu kecha Tozabog‘ yo‘liga qorovul qo‘yilib, boshqa yo‘lovchilar kiritilmagan. Foytun qabristonga yaqinlashganida niqob kiygan qotillar tezkorlik bilan yugurib chiqishadi. Bu qotillik juda tezlikda amalga oshirilganki, hatto

bosh vazir Islomxo'ja yonidagi to'pponchasini olib ishlatishga ulgurmagan. Qotillik amalga oshiriladi. Islomxo'janing yonida ko'p miqdorda pul va qimmatbaho buyumlar bo'lishiga qaramasdan qotillar bosh vazirning cho'girmasidan boshqa hech narsaga tegmagan [6.–B.65]. Bundan ko'rinib turibdiki, bu qotillik qaroqchilar tomonidan amalga oshirilmagan.

Bosh vazir Islomxo'ja o'limidan keyin Xiva xonligida islohotlar to'xtab qoladi.

1915 – 1916-yillar davomida xonlikda kelishmovchiliklar, Junaidxon boshchiligida turkmanlar talonchiligi yuz beradi. Rossiyaning birinchi jahon urushiga kirishi munosabati bilan unga qaram bo'lgan Xiva xonligidagi aholi ahvoli yanada og'irlashadi, soliqlar miqdori ko'paytiriladi, xalqning norozilik harakati kuchaya boradi[4.–B.284]. Bunday og'ir sharoitda “Yosh xivaliklar” faoliyati kuchayadi. Endi ular xon hokimiyatiga qarshi harakat qila boshlaydilar.

XULOSA. Xonlikda fitna, xoinlik avj oladi. Asfandiyorxon 1918-yil 1-oktyabrida Junayidxonning buyrug'i bilan Ismomut ota qabristoni shayxining o'g'li Onnagaldi tomonidan Nurullaboy saroyi mehmonxonasida o'ldiriladi[8.–B.87]. Asfandiyorxon o'zi uchun onasining qabri yonida bir qabr tayyorlatgan edi.

Lekin uning jasadi Dishan qal'a ichkarisidagi “Xorazmshohlar masjidi”dagi qabrga qo'yiladi. Buning sababi Xiva xonligida qadimdan saqlanib kelayotgan odat bo'lib, unga ko'ra, Ichan qal'adaga undan tashqarida vafot etgan kishining jasadi qo'yilmagan. Shu sababdan Asfandiyorxon o'zi tayyorlatgan joyga dafn qilinmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mahmudov M., Sheripov U. Xiva xonligi tarixi. – Urganch, 2013. – 136 b.
2. O'zbekiston tarixi. XI jild. – T.: O'zbekiston, 2023. – 632 b.
3. Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий (Мерос туркуми). – Т.: Камалак, 1991. – 336 б.
4. Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар (XIX аср иккинчи ярми – XX аср биринчи чораги). – Т.: Abu matbuot konsalt, 2007. – 388 б.
5. Матниёзов М., Олламов Я. Хоразм давлатчилиқ тарихи. – Урганч, 2009. – 291 б.
6. Саъдуллаев А., Сотликов А., Абдуллаев О. Сайид Ислomхўжа.–Тошкент,2005.–120 б.
7. Холиқов К., Худойберганов К. Хоразм кўнғирот иноқлари шажараси. – Т.: Академнашр, 2021. – 298 б.
8. Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. – Хива, 1996. – 101 б.

